



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**TOSHKENT VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2025- YIL YANVAR-FEVRAL
OYLARI UCHUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)**

**Tel.: 71-202-86-66
www.toshvilstat.uz**



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



(2025- yil 1- mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6384 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 404 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,3 % i) Chirchiq shahriga, 177 tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, 919 tasi (14,4 %) Zangiota tumaniga, 565 tasi (8,9 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2025- yil 1- mart holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, %da
Jami:	6384	69	100,0
Nurafshon sh	139	4	2,2
Olmalik sh	238	6	3,7
Angren sh	329	7	5,2
Bekobod sh	146	9	2,3
Ohangaron sh	163	6	2,6
Chirchiq sh	404	3	6,3
Yangiyo'l sh	177	2	2,8
Oqqo'rg'on	138	5	2,2
Ohangaron	232	4	3,6
Bekobod	146	1	2,3
Bo'stonliq	223	0	3,5
Bo'ka	93	2	1,5
Quyichirchiq	221	3	3,5
Zangiota	919	27	14,4
Yuqori Chirchiq	388	6	6,1
Qibray	565	13	8,9
Parkent	408	12	6,4
Piskent	117	4	1,8
O'rta Chirchiq	261	7	2,7
Chinoz	179	6	3,4
Yangiyo'l	337	30	4,5
Toshkent	561	59	1,8

Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17903,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 103,6 % ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Toshkent viloyatida 2025- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5812,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.


2024-yilning yanvar-fevral oyida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 14326,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,0 % ni tashkil etdi.


Hajmi, mlrd so'm



FHI, %da




Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **878,3** mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **4,9** % ini tashkil etdi.



Yanvar-fevral

2023-y 596,8 mlrd. soʻm

2024-y 623,1 mlrd. soʻm

2025-y 878,3 mlrd. soʻm

2023-y 100,5%

2024-y 89,6%

2025-y 124,8 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **14326,9** mlrd soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **103,5** % ini tashkil etdi.

Yanvar-fevral

2023-y. 9857,7 mlrd soʻm

2024-y. 11381,5 mlrd soʻm

2025-y 14326,9 mlrd soʻm

FHI, %da

2023-y. 91,0 %

2024-y. 109,8 %

2025-y 103,5 %





**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

O'simlik yog'i (tozalangan)			Pishloq va tvorog			Yumshoq bug'doy va spelta uni		
2025	148,7	156,7	2025	17,2		2025	80,5	
2024	163,8		2024	2,3m		2024	49,8	
2023	5,8m		2023	58,1		2023	96,0	
Pivo			Aroq ming litr (100% spirt)			Uzum vinosi		
2025	89,0		2025	155,9		2025	124,6	
2024	114,1		2024	120,8		2024	46,0	
2023	83,2		2023	76,0		2023	3,9m	
Portlandsement			Paxta chigiti			Kalava ip		
2025	175,6		2025	64,7		2025	158,8	
2024	133,9		2024	52,6		2024	81,7	
2023	31,3		2023	104,2		2023	62,3	
Ammoniysulfat			Ammoniy nitrat			Etil spirti		
2025	0,0		2025	28,7		2025	86,7	
2024	0,0		2024	75,5		2024	100,0	
2023	6,2m		2023	52,4		2023	100,0	

2025- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7,3 ming tonna o'simlik yog'i (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 156,7 % ni tashkil etgan), 0,5 ming tonna suyultirilgan sut (126,8 % ni) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoatmahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	31,7	25,5	-6,2
Shakar, ming t.	19,7	38,0	18,2
Paxta tolasi ming t.	4,5	3,1	-1,4
Portlandsement, ming t.	343,2	602,6	259,4


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 7,1% (2024yilning yanvar-fevral oylaridanisbatan fizik hajm indeksi 163,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 8,1 % (2024-yilning yanvar-fevral oylaridanisbatan fizik hajm indeksi 102,4 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,8 % (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,7 % (2024-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,5 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2024- yilning yanvar-fevral oylarida– 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 5,7 % (5,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 50,2 % (52,4 %) va quyi texnologiyalisi – 22,8 % (20,1 %)ni tashkil etdi.





Metallurgiya sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2025- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 6812 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 38,0 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 84,0 % tashkil etgan

2024- yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati 6415,5 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 43,6 % ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,6 %ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




2025- yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 127,7 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 657,3 mlrd soʻmni tashkiletdi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,8 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish




2025- yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 129,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1994,1 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,5 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2025- fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 120,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 481,8 mlrd so'mni tashkil etdi.


2024- yanvar-fevral oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 156,9 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2025- yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 97,1 % ni tashkil etgan holda ishlab chiqarish hajmi 833,6 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 147,0 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 %, fizik hajm indeksi 109,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 598,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 122,8 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 94,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 437,0 mlrdso'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni fizik hajm indeksi esa 85,4 % ni tashkil etgan.




Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 72,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 259,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni fizik hajm indeksi esa 331,9 % ni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi 158,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 401,1 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni fizik hajm indeksi esa 127,2 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 110,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 419,5 mlrd so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni fizik hajm indeksi esa 92,8 % ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 134,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 334,2 mlrd so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 460,2 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 %, fizik hajm indeksi 214,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 25,0 mlrd so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni fizik hajm indeksi esa 45,1 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1291,3 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,7 % ni) tashkiletadi.


2025-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,5 % ni tashkil etdi .



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mlnkVts	3546,5	3549,9	3,4
Issiqlikenergiyasi, ming gkal	718,9	714,1	-4,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,9 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrdso'm	10,9	13,1	2,3
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrdso'm	2,2	3,1	0,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 13,1 mlrd so'm yoki 21,0 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 3,1 mlrd so'm va 37,2 % ga ko'paygan.




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2954,1 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 16,5 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2025- yil yanvar-fevral




2024- yil yanvar-fevral




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd soʻm)da

2025- yil yanvar-fevral



2024- yil yanvar-fevral



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi

2025- yilning yanvar-fevral

(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi,% da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3152,5 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,6 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

